O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
SIRDARYO VILOYATI
BOSHQARMASI

Sirdaryo viloyati 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Hondamir ko‘chasi, 7-uy, Tel/Faks: 71-203-11-08, E-mail: sirdarya_davekspert@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Otajonov Mansurjon Ma’rufjon O‘g‘li

2026 - yil 27 - iyuldagi 290959 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: "Sirdaryo viloyati Guliston tumani "Yulduz" MFY xududida qurilayotgan 1 ta 5 etajli turar-joy binosi”korrekturasi

Buyurtmachi: KUZIBOY OTA SULOLASI XK

Bosh loyihachi: "MAVERICK PROJECT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Moliyalashtirish manbai: Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan

Bosh pudratchi: Tanlov asosida

Qurilish turi: Yangi qurilish

Murojaat raqami: 130074

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Guliston tumani hokimining 2021-yil 3-maydagi 405-sonli qarori.

1.2. Belgilangan tartibda tasdiqlangan va kelishilgan loyiha topshirig‘i. /2026-yil/

1.3. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining Sirdaryo viloyati Qurilish bosh boshqarmasini 2021-yil 29-maydagi 1724-1724220-20807 -son Aritektura-rejalashtirish topshirig‘i.

1.4. “O‘ZGAShKLITI” MChJ Sirdaryo viloyati filialining muhandislik-geologiya sharoitlari xulosasi.

1.5. **“**Quziboy ota sulolasi” XKning 2026-yil 24-iyuldagi 5-sonli xati.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

Loyiha tarkibiga ko‘ra "Sirdaryo viloyati Guliston tumani "Yulduz" MFY xududida qurilayotgan 1 ta 5 etajli turar-joy binosi” korrekturasi obyekti bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlarining elektron shakli.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Loyihadagi yangi qurilsih obyekti loyihasi “Sirdaryo viloyati Guliston tumani “Yulduz” MFY hududida 1 ta 5 qavatli turar-joy binosi” qurish ishlarini amalga oshirish nazarda tutilgan.

3.2. Qurilish hududining tabiiy-iqlim sharoitlari.

Me’yoriy qor tushish bosimi – So=0,50 KPa (50 kgs/m2) (QMQ 2.01.07-96).

Me’yoriy shamol tezligi bosimi – Wo=0,38<0,48 KPa (38<48 kgs/m2) (QMQ 2.01.07-96).

Hududning zilzilaviyligi – 7 ball.

Binoning zilzilaviylik bardoshliligi – 8 ball.
Tashqi havoning hisobiy harorati – (-15°C).
Binoning javobgarlik sinfi – II.
Chidamlilik darajasi – II.
Olovbardoshlik darajasi – II.
Funksional yong‘in xavfi bo‘yicha sinfi – F1.3.
Konstruktiv yong‘in xavfi bo‘yicha sinfi – C0.
Yerning muzlash chuqurligi sathi – 0,70 metr.
3.3. Bosh reja hudud chegaralari. (GP)
Shimol tomondan - Avtomobil yo‘li bilan chegaralangan.
Janub tomondan - Turar-joylar bilan chegaralangan.
Sharq tomondan - Aholi tomorqalari bilan chegaralangan.
G‘arb tomondan - Ichimlik suvi tik qudug‘i bilan chegaralangan.
3.4. Arxitektura yechimi. (5 qavatli turar-joy binosi. AR)
Loyihadagi yangi bino 5 qavatli rejada, to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida bo‘lib, o‘lchamlari o‘qlarda (A-V) 12,00 x (1-11) 50,88 metr.
3.5. Tashqi pardozlash ishlari. (5 qavatli turar-joy binosi. AP)
Tashqi devorlari – Tashqi issiqlik himoya qoplamasi, δ=50mm.dan kam bo‘lmagan mineral bazalt tolali yoki boshqa yonmaydigan turga mansub mineral plitka qoplama bilan qoplanadi.
Tashqi bezak – Dekorativ travertin bezak, mahsus suvoq ustinan qoplanadi.
Sokol – Suvoq qilinib, dekorativ travertin bezagi bilan qoplanadi.
Krilso – Keramik kafeldan qoplanadi.
Pandus – Keramik kafeldan qoplanadi.
Otmostka – Bino perimetri beton qoplamasi yotqizilgan, beton bo‘lgan shag‘al asos.
Otkoslar – Qum-sement suvoq ustidan, dekorativ bezak travertin qilinadi.
Tom qoplamasi – Profil yuzali metal qoplama yog‘och konstruksiya ustidan yopiladi.
Tom issiqlik qoplamasi – Mineral tolali bazalt, qalinligi δ=100mm. bo‘lgan qoplama bilan qoplanadi.
Tashqi tokchalar – Po‘lat yuzali (otsenkovka) metal qoplamadan. qalinligi 0.5mm eniga 200mm.
3.6. Ichki pardozlash ishlari. (5 qavatli turar-joy binosi. AP)
Kirish yo‘laklari va zinapoyalar uchun qum-sement suvoq qilinib, shpaklyovka bilan tekislanadi, ustidan yorqin rangda suv asosli emulsiya bilan bo‘yaladi.
Pollar – Kirish yo‘laklari keramik kafeldan qoplanadi, zinapoyalar uchun moy bo‘yoq qilinadi.
Eshiklar – Metal profillardan tayyorlangan individual ishlab chiqariladi.
Derazalar – Bir qartlamli (steklopaket) shaffof oynalardan tayyorlanadi, individual PVX profillardan ishlab chiqariladi.
Darcha derazalar – (Framuga) Bir qartlamli (steklopaket) shaffof oynalardan tayyorlanadi, individual PVX profillardan ishlab chiqariladi.
Plintuslar – Kirish yo‘laklari keramik kafel va zinapoyalar uchun bo‘yoq qilinadi.
3.7. Energiya samaradorligi va enrgiya tejamkorligi. (5 qavatli turar-joy binosi. EE)
PVX derazalar, standart 1 kamerali profil, ikki tomonlama energiya tejaydigan oynali.

Tashqi devorlari – Qalinligi δ=50mm.dan kam bo‘lmagan mineral bazalt tolali yoki boshqa yonmaydigan turga mansub mineral plitka qoplama bilan qoplanadi.

3.8.Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yechimlar. (Ko‘p qavatli turar-joy binosi. NBSh)

Mazkur 5 qavatli turar-joy binosi obyekti loyihasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarga qulay va to‘siqlarsiz muhit yaratish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida” PQ-266-son Qarori bilan tasdiqlangan choratadbirlarining kirish va chiqish, fuqarolarni nogironligi bo‘lgan shaxslarning erkin foydalanishi uchun moslashtirish talablari bajarilmagan. Buyurtmachi“Kuziboy Ota Sulolasi” XK ning 2026-yil 24-iyuldagi 06-sonli kafolat xatida obyekt bosqichma-bosqich tartibda loyihalanib, qurilishi sababli qolgan muhandislik tarmoqlari hamda “nogironligi bo‘lgan shaxslar” uchun talablar keyingi bosqichda ishlab chiqilib taqdim etilishi va to‘liq bajarilishi kafolatlangan. Bajarilmagan boshqa talablar va ish turlari bo‘yicha buyurtmachi javobgar.

“Nogironligi bo‘lgan shaxslar” uchun qurilmalar va jixozlarini o‘rnatish, qurilish jarayonida buyurtmachi va quruvchi o‘rtasida aniqlanadi. Barcha talablar bajarilishini ta’minlash va javobgarlikni o‘z zimmasiga olgan holda buyurtmachi ijobiy xulosani o‘qib qabul qilishi bilan unga yuklanadi. (birlamchi hujjatlariga qaralsin).

3.9. Konstruktiv yechimlari bo‘yicha.

Ko’p qavatli turar-joy binosi qurilishi.

Binoning o’qlar bo’yicha umumiy o’lchamlari – 50.88x12.0m, to’g’ri to’rtburchak shaklida;

Bino qavatliligi – 5 qavatli, yerto’la texnik qavati mavjud;

Poydevor qurish uchun dastlab yer qazish ishlari bajariladi;

Poydevori – B15 sinfli tasmasimon quyma temirbetondan iborat, kesim qalinligi 500mm;

Sokol devorlari – B15 sinfli quyma temirbeton devorlardan iborat, kesim qalinligi 400mm;

Devorlari – qalinligi 380mm li M75 markali pishiq g’isht va M50 markali sement-qumli qorishma yordamida II toifa ususlida teriladi. Devorlarni kuchaytirish gorizontal armosetka elementlari yordamida bajariladi;

Pardevorlari - M75 markali pishiq g’isht va M50 markali sement-qumli qorishma yordamida II toifa ususlida teriladi. Pardevorlarni kuchaytirish gorizontal armosetka va metall ustun konstruksiya elementlari yordamida bajariladi;

O’zak elementlari – B15 sinfli quyma temirbeton konstruksiya;

Sarbasta – B15 sinfli quyma temirbeton va metall konstruksiyalardan iborat;

Zina konstruksiyasi – B12.5 sinfli quyma temirbeton konstruksiyalardan iborat;

Orayopma va tomyopma elementlari – ko’p aylana bo’shliqli yig’ma temirbeton plitalardan iborat;

Tom qismi – yog’och konstruksiya elementlari ustidan profnastil qoplanadi;

Tom qismiga metall chegara to’siq konstruksiyalari o’rnatiladi;

Barcha metall konstruksiya elementlarining sirt yuzalari moyli bo’yoq bilan bo’yaladi.

3.10. Yong‘in xavfsizligi bo‘yicha qisqacha ma’lumot.

Loyihaning umumiy ko‘rsatmalar qismida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra loyihalanayotgan binoning funksional yong‘in xavfi bo‘yicha F 1.3 deb olingan.

Binoning yong‘inga qarshiligi - II toifa. Bino konstruksiyalarining yong‘in xavfsizligi bo‘yicha funksional sinfi - S0. Loyihada binoning o‘tga chidamlilik darajasi, o‘tga chidamlilik chegaralari va inshoatning yong‘in guruhlariga javob berishini ta’minlash

ko‘zda tutilgan. Evakuatsiya holatida binodan chiqish yo‘laklari tizimi belgilangan va yoritish chiroqlari bilan ta’minlangan. Yog‘ochdan yasalgan tom yopish konstruksiyalari yong‘inga qarshi vositalar bilan ishlov berilgan, tok o‘tkazmaydigan barcha elektr jihozlarining tuproqlanishi va nolga teng bo‘lishi belgilangan. Binoning tom qismida aylanasiga temir panjara bilan o‘ralgan, binoning xonalariga yong‘in signalizatsiyaning xabarlagichlari bilan jihozlangan

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Buyurtmachi “Quziboy ota sulolasi” XKning 2026-yil 24 iyuldagi 5-sonli xati va Loyihalash uchun texnik topshiriqga asosan muxandislik tarmoqlari Suv va oqava tarmoqlari va tashqi suv tarmoqlari, Elektr ta’minoti va tashqi elektr tarmoqlari, isitish va shamollatish tizimlari shuningdek kuchsiztok tizimlaridan video kuzatuv, yong‘in xavfsizligi signalizatsiyasi, domofon, lokal tarmoqlari 2-bosqichda tegishli tashkilotlardan texnik shartlar olingandan so‘ng loyiha smeta hujjatlari ishlab chiqilib ekspertiza kurigiga taqdim etilishi ma’lum qilindi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi Sirdaryo viloyati qurilish bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 16.07.2021 dagi 22102 -sonli xulosasi.

5.2. Sirdaryo viloyati “Davlat ekologik ekspertizasi markazi”DUKning 2021-yil 17-maydagi 10/277-sonli Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi.

5.3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2018 yildagi 256-sonli va 20.04.2022 yildagi 200-sonli qarorlari talablariga qat’iy roiya qilingan holda buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Loyiha-smeta hujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2.Ekspertiza jarayonida soxa ekspertlari xulosasi izohlari buyurtmachi va loyihachi tomonidan qabul qilinib, loyihaga tuzatishlar va qo’shimchalar kiritildi.

Buyurtmachi “Quziboy ota sulolasi” XKning 2026-yil 24 iyuldagi 5-sonli xati va Loyihalash uchun texnik topshiriqga asosan smeta hujjatlari 2-bosqichda ishlab chiqilib ekspertiza kurigiga taqdim etilishi ma’lum qilindi.

Loyiha topshirig‘iga asosan loyiha 2 bosqichdan iborat.

Birinchi bosqich -binonig Arixitektura (AR) Konsturksiya (KJ) va Yong'in xavfsizligi ekspertiza ko'rigidan o'tkaziladi.

Ikkinchi bosqichda Smeta bo'limi, issitish va sovutish tarmoqlari, Elektr tarmoqlari va tashqi elektr tarmog'i bilan, issiq suv-sovuq suv va oqava suv tarmoqlari hamda tashqi suv va oqava suv tarmoqlari, shuningdek kuchsiztok tizimlari loyiha hujjatlari ishlab chiqilib ekspertiza ko'rigiga taqdim etiladi.

6.3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarorining 1-ilovasi, 3-bob, 29-bandiga asosan, “Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir”.

Yakuniy narx buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilishni tugatgandan so’ng, nazorat o’lchovi natijalariga ko’ra, haqqoniy bajarilgan ish hajmiga muvofiq belgilanadi.

6.4. Buyurtmachi va Loyihachi tashkilotlarga kamchiliklarni bartaraf etish uchun talablar.

Loyiha bo’yicha kamchilik va takliflar:

- Loyiha topshirig’idagi arxitektura-qurilish yechimlari loyihalanayotgan binoga mos emas. Loyiha topshirig’i loyihaga moslashtirish lozim.

- Binoning barcha birlamchi hujjatlar muddati eskiligi, qurilish boshlab ma’lum muddatda to’xtaganligi va ma’nan eskirish holati bo’lgan taqdirda, SHNQ 1.04.01- 23 ning 3-bob, 8-band talabiga muvofiq texnik-instrumental ko’rikdan o’tkazilishi (tegishli vakolatga ega tashkilot tomonidan) hamda texnik baholash xulosa hujjati ishlab chiqilishi va ekspertiza ko’rigiga taqdim qilinishi talab etiladi.
- Yuqoridagi kamchilikka hamda geologiya ma’lumotlariga asosan, texnik hisob hujjati (texnicheskiy raschet konstruksiy) loyiha tashkiloti tomonidan ishlab chiqilishi lozim.
- Loyiha bosh varag’i va umumiy ma’lumotlar varag’i mavjud emas. Ishlab chiqilsin va tashkilot tomonidan to’liq tasdiqlangan holda loyihaga kiritilsin (GOST 21.501- 2018 talablari asosida).
- KJ-4 da handaq (kotlovan) qazish ish hajmlari noto’g’ri hisoblangan. Qayta ko’rib chiqish tavsiya qilinadi.
- KJ-5 da handaq kesim chizmasida poydevor ostki qismi yer sathidan 1.5m chuqurlikda loyihalangan. Geologiya xulosasiga ko’ra, yerosti suvlarining maksimal chiqish chuqurligi 0.6-0.7m bo’lganligi sababli, handaq qismida yerosti suvlarini qochirish texnologiyasi (drenaj Sistema o’rnatish va suvni nasos yordamida qochirish) chizmasi va ish hajmlari loyihada ishlab chiqilsin (SHNQ 2.02.01-19 talablari asosida).
- Muhandislik geologiya xulosasida grunt cho’kuvchanligi talabga javob bermaganligi hamda yerosti suvlarining chiqish chuqurliklari yaqinligi sababli, KJ-5 da poydevor ostki qismiga gruntli yoki GPS zichlash qatlami qo’llash talab etiladi (texnik hisob asosida qalinlik qabul qilinsin).
- KJ-2 da poydevor sxemasida tasmasimon qilib loyihalanganligi hamda tasma yostiqlarining kengliklari va armaturalash foizlari asoslansin (texnik-tekshirish hisobi ishlab chiqilsin). Yaxlit quyma temirbeton plita ko'rinishida ishlab chiqish talab etiladi.
- KJ-5 da poydevor ostki qismida gorizontal gidroizolyatsiya qo’llash talab etiladi.
- KJ-5 da sokol poydevorlarining tashqi tomonlariga vertikal gidroizolyatsiya qatlami ustidan himoya devorchasi qo’llash talab etiladi (penopolistirol yoki pishiq g’isht terimlari orqali).
- KJ-9 da materiallar hisoblari qayta ko’rib chiqilsin. Xatoliklar mavjud.
- KJ bo’limida bino konstruktiv tizimining turiga QMQ 2.01.03-19 ning 3.1-jadvali asosida aniqlik kiritilsin va belgilansin.
- KJ-13 da temirbeton o’zak elementlari ko’p miqdorda qo’llanilgan. Ushbu bino konstruktiv tizimi karkasli (rama-bog’lamli) bo’lganligi sababli, QMQ 2.01.03-19 3.5.13-bandi asosida qo’llash talab etilmaydi. Kamaytirilsin.
- KJ bo’limida varaqlar va chizmalar to’liq ishlab chiqilmagan.
- KJ-13 da jadval tuzilishida texnik nosozlikka yo’l qo’yilgan. Tuzatish kiritilsin.
- KJ bo’limida karkas elementlari (ustun va to’sinlar) sxemalari alohida ishlab chiqilsin va montaj hamda armaturalash chizmalari loyihada ishlab chiqilsin.
- Yuqoridagi kamchiliklar tuzatilgandan so’ng, loyiha konstruktiv yechimlari bo’yicha ish hajmlari smeta qismida ham o’zgartirilishi lozim.

Izoh:

Yuqoridagi kamchiliklar tuzatilgandan so’ng, loyiha oldi va loyiha hujjatlari, texnik hujjatlar va ish hajmlari ekspertiza ko’rigidan qayta o‘tkazilishi lozim. Aks holda ushbu ijobiy xulosa o’z kuchini yo’qotadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, obyektning loyiha-smeta hujjatlaridagi kamchiliklarni to‘g‘irlash va bartaraf etish bo‘yicha javobgarlik Buyurtmachi va loyiha tashkiloti zimmasida qoladi

6.5. Ekspertiza tomonidan tavsiya etilgan cheklangan qiymat buyurtmachi va pudratchi o‘rtasida shartnoma tuzish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri asos bo‘lib xizmat qilmaydi.

Shaharsozlik hujjatlarining ekspertizadan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi ijobiy xulosa quyidagilar uchun asos bo‘ladi:

-shaharsozlik hujjatlarini belgilangan tartibda tasdiqlash;

-keyingi loyihalashtirish bosqichini ishlab chiqish;

-obyektni qurilish sohasida hududiy nazorat inspektsiyasidan ro‘xatdan o‘tkazish;
-tender (tanlov) hujjatlarini tayyorlash;
-moliyalashtirishni amalga oshirish.
-Ammo, lekin buyurtmachi va pudratchi urtasida qurilish shartnomasini tuzish, pudratchi tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmi va narxlar bo‘yicha o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun asos bo‘la olmaydi.
Ob‘ektning shartnomaviy qiymati buyurtmachi va pudratchi o‘rtasida tuziladigan shartnoma asosida belgilanadi.
6.6. Demontaj ishlarini bajarishda materiallarni qaytarish qiymati buyurtmachi nazorati ostida pudratchi bilan birgalikda belgilanadi.
6.7. Buyurtmachi o‘z faoliyati davomida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-maydagi “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati faoliyatini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 321–sonli qarori bandlarida keltirilgan talablar va ko‘rsatmalarga muvofiq o‘ziga yuklatilgan vazifalar va majburiyatlarni to‘liq bajarishi lozim.
6.8. Smeta hujjatlarida ko‘rsatilgan buyurtmachi va pudratchining boshqa xarajatlari miqdori bo‘yicha “Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi qilish Respublika markazi” DM Sirdaryo viloyati hududiy boshqarmasi javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi. Ushbu xarajatlar ShNQ 4.01.16-09 talablariga muvofiq hisoblanishi tavsiya etiladi va ularning asoslanganligi uchun javobgarlik buyurtmachi tashkilot zimmasiga yuklatiladi.
6.9.O‘zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi 684-son Qonuni va O‘zbekiston Respublkasi Vazirlar Mahkamasining 31.01.2022 yildagi 46-son qarori va ShNQ 4.01.16-09 me’yorlariga muvofiq obektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan yangi qurilish ishlari narxi bo‘yicha asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korxonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.
6.10. O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 17.09.2021 yildagi №579-sonli qarorining 4-bandiga asosan "Qurilishi markazlashtirilgan manba’lar hisobiga moliyalashtiriladigan obektlarning boshlang‘ich qiymati Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy saytiga (stat.uz) joylashtirib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizimlar xizmati uchun o‘rtacha narxlar hamda o‘rtacha ish haqi ko'rsatkichlaridan foydalangan holda shakllantiriladi" hamda mazkur qarorning 1-ilova 3-bob 29-bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari bo'yicha buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir".
6.11. Buyurtmachi, loyiha muallifi va pudrat tashkilotlari Mehnat va texnika xavfsizlik qoidalariga hamda yong‘in xavfsizligiga rioya qilinsin.
6.12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.05.2021-yildagi 321-sonli qarorning 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishini ta’minlaydi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "Sirdaryo viloyati Guliston tumani "Yulduz" MFY xududida qurilayotgan 1 ta 5 etajli turar-joy binosi”korrekturasi ishlari yuzasidan loyiha-smeta hujjatlari mazkur yig‘ma ekspert xulosasining 6.4. bandidagi ko‘rsatilgan kamchiliklarini bartaraf etish sharti bilan kelgusida ko’rib chiqish va kelishish uchun tavsiya etiladi. Agarda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan barcha kamchiliklarni Buyurtmachi va loyiha tashkiloti tomonidan tuzatilib qayta ekspertiza ko‘rigiga taqdim etilmagan taqdirda berilgan ekspertiza xulosasi o‘z kuchini yo‘qotgan (bekor qilinadi) deb hisoblanishini bildiramiz.

7.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi 261-sonli qarori va ShNK 4.01.16-09 ga muvofiq, tanlov savdolarini o‘tkazish uchun obyektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

Ishtirokchi ekspertlar: Muxamadiyev Suxrobjon Baxtiyorovich, Nazarov Bobur Baxodir O‘g‘li, Djabbarova Lenura Appazovna, Abdullayev Shavkat Rahmatulla O‘g‘li, Yo‘ldoshaliyev Jahongir Dilshod O‘g‘li, Abdullayeva Nodira Mirzanazarovna, Djurayev Sherali Axmatjanovich

Bosh ekspert

ABDUNAZAROV VAXOBIDDIN TURSUNBOYEVICH